

# Yashil

## IQTISODIYOT TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil**

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 132 sahifa.*

*E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

### **Tahrir hay'ati:**

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxridtinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvar Khanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhad**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## **Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## **Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliv ta'lif muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish .....	16
<b>Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynudinova Umida Djalolovna</b>	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash .....	20
<b>Shakarov Zafar Gafforovich</b>	
Transformatsiya chelovecheskogo kapitala v usloviyah cifrovizatsii i vnedreniya iskusstvennogo intellekta v bankovskuyu ekosistemu .....	24
<b>C.C. Ismailov</b>	
"Kreativ iqtisodiyot" va "kreativ industriya": mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili .....	32
<b>Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich</b>	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
<b>Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li</b>	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari .....	41
<b>Sh.B. Donayev</b>	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir .....	45
<b>Xursandov Komiljon Maxmatkulovich</b>	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatichilagini tashkil etish.....	49
<b>Idrisov Alisher Otajonovich</b>	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlari .....	53
<b>Sultanov Maximud Axmedovich</b>	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
<b>Amirdjanova Sitora Sunnat kizi</b>	
Faktory, vliyayushchie na uspeshnoe funktsionirovaniye skandinavskoy modeli razvitiya ekonomiki .....	61
<b>Bohidova Mehri Xasanovna</b>	
Analiz zarubежnogo opyta metodologii otsenki finansovogo potentsiala razvitykh stran .....	69
<b>Buranova Lola Vahobovna</b>	
Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi .....	78
<b>Babamatov Tolib Xakimovich</b>	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarinining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari .....	83
<b>S.A.Karabayev</b>	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari .....	90
<b>Yusupov Aziz Shuxratovich</b>	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi .....	95
<b>Gulbayeva Feruza Islamovna</b>	
Oliv ta'lif muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
<b>Sherov Alisher Bakberganovich</b>	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalilanigan gazlamalar tahlili .....	107
<b>Sayidova Maftuna Hamroqul qizi</b>	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish .....	111
<b>Umarova Malika Baxtiyarovna</b>	
Otsenka vliyaniya nalogovoy sistemy na finansovoe sostoyaniye organizacij .....	116
<b>Umida Oldashewa</b>	
Teoreticheskoe obosnovanie internet-marketinga v sozialnyx setyax .....	120
<b>Aripkhodjaev Saidamir Fuzuliddinovich</b>	

# MUNDARIJA CODERZHANIYE



### CONTENTS

Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
<b>Ismoilov Sherzod Dilshodovich</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari.....	132
<b>Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li</b>	
Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari .....	138
<b>Sharipov Narzullo G'ułomovich</b>	
O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	144
<b>Shadieva Madina Djaloliddin qizi</b>	
Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	148
<b>Jumanazarova Z.K.</b>	
Xalqaro savdoning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri .....	154
<b>Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich</b>	
Oliygohlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari .....	158
<b>Adizov Sanjar Rashidovich</b>	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish .....	165
<b>Xoliyorov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi</b>	



# KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KLASTER TIZIMINI JORIY QILISH JARAYONLARI

**Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li**

Farg'ona davlat universiteti "Iqtisodiyot va servis"  
kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining respublikamizdagi tutgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o'rni borasida so'z boradi. Shuningdek, muallif tomonidan kichik biznes egalariga amaliy moliyaviy takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, mexanizm, xususiy tadbirkorlik, klaster, me'yoriy usul.

**Abstract:** This article talks about the political, social and economic role of personal business and private entrepreneurship in our republic. The author also provides practical financial suggestions for small business owners.

**Key words:** Small business, mechanism, private entrepreneurship, cluster, normative method.

**Аннотация:** В данной статье говорится о политической, социальной и экономической роли личного бизнеса и частного предпринимательства в нашей республике. Автор также предоставляет практические финансовые рекомендации для владельцев малого бизнеса.

**Ключевые слова:** Малый бизнес, механизм, частное предпринимательство, кластер, нормативный метод.

## KIRISH

Tadbirkor va ishbilarmonlarning buniyodkorlik harakatlari mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lida olib borilayotgan islohotlarning ajralmas qismi sifatida o'zining ijobiy samarasini bera boshladi. Eng asosiysi, so'nggi yillarda iqtisodiy o'sish sur'atlari barqaror tus oldi. Erkin iqtisodiyotning sinalgan tamoyillariga izchil amal qilinishi natijasida tadbirkorlikning iqtisodiyotdagи o'rni va ahamiyati oshdi.

O'zbekistonda taraqqiyotning yangi davrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi o'zining yuqori ko'satkichlarini namoyon etmoqda. Mazkur soha mamlakatimiz iqtisodiyotida barqaror rivojlanishi ta'minlash, aholining ish bilan bandligi va daromadlari darajasini oshirish, raqobat muhitini kuchaytirishda faol ishtiroy etmoqda. O'zbekistonda amalgalashish islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishiga qaratiganligi bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlanish masalasiga davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi sifatida qaralmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'tgan asrimizning 90-yillardan boshlab ishlab chiqarishni hududiy jihatdan tashkil etishning o'ziga xos yangi shakli sifatida klasterlarga alohida e'tibor qaratila boshlandi va mazkur masalalar M. Portering ilmiy ishlarida nazariy jihatdan asoslab berildi.

Klasterlarni turlicha talqin qilish va klasterlarning turli modellarining mavjudligi klasterga bir-biri bilan o'xshash jihatlari ko'p bo'lgan turli xil ta'riflarni keltirib chiqargan. Masalan, I. Goretov agrosanoat klasterini "qo'shilgan qiymat yaratishning texnologik zanjiriga kiruvchi va agrosanoat majmuuning turli sohalarini o'z ichiga oluvchi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi asosida tashkil etilgan, innovatsion yo'naltirilgan va tarmoqli tashkillashtirish elementlariga ega hududiy-lokal integratsion tuzilma" sifatida ta'riflaydi<sup>1</sup>.

V. Kundius va N. Golovinlar esa agrosanoat klasterini "innovatsion faoliyatni faollashtirish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirish maqsadida savdo-ishlab chiqarish faoliyati bilan o'zaro bog'liq bo'lgan va ma'lum

<sup>1</sup> Michael Porter. Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review, November-December, 1998. p. 78.



bir hududda joylashgan korxona va tashkilotlarning o'zaro uyg'unligi" sifatida talqin qiladilar<sup>2</sup>. Umuman olganda, bugungi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish – agrosanoat majmuidagi eng dolzarb muammolardan biridir. Agrosanoat majmuida kalasterlarni tashkil etish masalalari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham chuqur o'rganilgan. Xususan, O'zbekistonda klasterlarni tashkil etishning nazariy-uslubiy jihatlari va tashkiliy masalalari A. Bekmuradov, N. Yo'ldoshev, M. Boltabayev, Sh. Madjidov, D. Mirzaxalilova, D. Kurbanova, G. Zaxidov kabilar tomonidan atroficha yoritib berilgan<sup>3</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mavzu bo'yicha statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo'llanildi. Tahlil davomida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlaridan foydalanildi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jamiyatimizda samarali va barqaror iqtisodiyotni ta'minlash borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa muddatda iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni shakllantirish, aholi daromadlarining ko'payishini ta'minlash, unumdon tashqi savdo va investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatlari yutuqlar qo'liga kiritilmoqda.

O'zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish"<sup>4</sup> muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga soliq, bojxona, tashqi iqtisodiy faoliyat va boshqa sohalarda turli imtiyozlar berish orqali ularning har tomonlama rivojlanishiga imkoniyatlar yaratilmoqda.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalinish hamda kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"<sup>5</sup> PF-5853-son Farmoni qabul qilindi. Unda quyidagilar Strategiyani amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi:

**1-jadval. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligining asosiy ko'rsatkichlari<sup>6</sup>**

Ko'rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Qishloq xo'jaligi ekinlari ekin may-doni, ming gektar	3474.5	3396.0	3309.4	3396.1	3260.7	x	x
Qishloq xo'jaligi mahsuloti, mlrd. so'm	148199.3	187425.6	216283.1	250250.6	303415.5	347564.4	37760.2
<b>shu jumladan:</b>							
Dehqonchilik	83303.4	98406.4	111904.8	123858.8	152130.4	179853.4	2752.9
Chorvachilik	64895.9	89019.2	104378.3	126391.8	151285.1	167711.0	35007.3

- 2 Горетов И.Н. Кластерные технологии в управлении АПК // Вестник Чувашского университета. 2009. № 1. С. 390.
- 3 Головин Н.А. Концептуальные положения управления интеграционными процессами в межотраслевых продуктовых подкомплексах АПК // Вестник Удмуртского университета. 2012. № 2 (Вып. 4). С. 21.
- 4 Захидов Г.Э. "Узбекистон енгил саноатида ишлаб чиқарышни кластер усулида ташкил этиш ва бошқариш самарадорлиги" иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент-2017 йил.
- 5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 2017-yil 7-fevral, PF-4947-son. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017- y., 6-son, 70-modda.
- 6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 23.10.2019-yil, PF-5853-son. <https://lex.uz/ru/docs/4567334>



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan foizda	101.0	100.2	103.3	102.7	103.9	103.6	103.2
--	-------	-------	-------	-------	-------	-------	-------

**shu jumladan:**

Dehqonchilik	98.2	95.8	104.8	103.2	104.3	103.8	97.7
Chorvachilik	104.1	105.7	101.6	102.1	103.5	103.4	103.6

- oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash, yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish, sifat nazorati infratuzilmasini rivojlantirish, eksportni rag'batlantirish, maqsadli xalqaro bozorlarda raqobatbardosh, yuqori qo'shilgan qiymatli qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish;

• qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko'paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirotini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish;

**2-jadval. Mamlakatimiz makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tizimida kichik biznes va xususiy tadbirdorlikning ulushi<sup>7</sup>.**

Ko'rsatkichlar	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
YalM	61.9	64.6	66.8	65.3	62.4	56.0	55.7	54.9	51.8	43.7
Sanoat	36.8	40.6	45.3	41.2	37.4	25.8	27.9	27.0	25.9	28.4
Qurilish	69.5	66.7	66.9	64.8	73.2	75.8	72.5	72.4	71.6	76.6
Bandlik	77.6	77.9	78.2	78.0	76.3	76.2	74.5	74.4	74.4	-
Eksport	27.0	27.0	26.0	22.0	27.2	27.0	20.5	22.3	29.5	25.3
Import	45.4	44.5	46.8	53.6	56.2	61.6	51.7	48.7	49.4	48.4

Shu bilan bir vaqtida, biz amalga oshirgan tadqiqotlar ko'rsatishicha, oila instituti tadbirdorlikni rivojlanish uchun oilalar salohiyati unga to'liq jalb etilmagani aniqlandi. Oilalardagi mehnat resurslari, bilimga ega mutaxassislar, turli sohalarda vaqtinchalik bandlik va shu kabi boshqa oila aktivlari hali yakka tadbirdorlik, uy mehnati yoki oilaviy korxonalar tashkil etishda to'liq foydalanilmayapti.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.06.2018-yildagi "Har bir oila-tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida<sup>8</sup>gi PQ-3777-son<sup>8</sup> qarori muhim ahamiyatga ega bo'lib, u oilaviy tadbirdorlik salohiyatini iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashga jalb etishda yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur qarorda belgilab berilgan o'ta dolzarb, shu bilan bir qatorda, yuqori ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni hal etish yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Shunday yondashuvlardan biri mahalla instituti hududida oila tadbirdorligini rivojlanishiga va uning salohiyatini oshirishda klaster mexanizmini joriy etish

<sup>7</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>

<sup>8</sup> [lex.uz/docs/3772869](http://lex.uz/docs/3772869)



hisoblanadi. “Har bir oila – tadbirkor” dasturining asosiy yo‘nalishlarining 5-qismida “qishloq va mahallalarning ixtisoslashuvini (hunarmandchilik, tikuvchilik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini yetishtirish, ixcham issiqxonalar tashkil qilish va boshqalar) hisobga oлган holda mazkur sohada ijobjiy natijalarga erishgan ishbilarmonlik tajribasiga ega tadbirkorlarni mahallalarda yangi biznes faoliyati bilan shug‘ullanishni boshlagan oilalarga biriktirish – mini klasterlar tashkil etish” vazifasi belgilangan.

**3-jadval. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko‘rsatkichlari hajmi<sup>9</sup>.**

Ko‘rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Sanoat (mlrd.so‘m)	61367.8	87962.0	83344.2	103020.8	121719.2	142611.7	37219.5
Qurilish (mlrd.so‘m)	22469.4	37451.7	53960.9	63866.6	77762.0	93620.8	21124.8
Bandlik (ming kishi)	10541.5	10128.8	10318.9	9865.7	10070.7	10222.9	-
Eksport (mln.AQSH.dol)	2759.3	3810.8	4714.8	3100.9	3711.2	5696.2	1440.8
Import (mln.AQSH.dol)	7511.9	10916.2	14972.2	10943.3	12389.0	15154.1	4396.6
Savdo (mlrd.so‘m)	92973.0	114896.4	138920.7	164106.1	204787.4	253573.4	48867.2
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (mlrd.so‘m)	152010.5	191759.2	219466.9	253238.2	307280.2	347222.0	38829.7
Xizmatlar (mlrd.so‘m)	69212.7	84433.4	103106.6	114052.7	144812.7	173157.7	45241.3
Yuk tashish (mln.tonna)	548.8	611.7	641.0	638.9	678.9	588.1	113.0
Yuk aylanmasi (mln.tonna-km)	10444.4	11657.7	12152.3	12304.6	13108.1	14394.9	2383.1
Yo‘lovchi tashish (mln.yo‘lovchi)	5037.5	5242.6	5345.0	4904.8	5237.6	5606.0	1303.8
Yo‘lovchi aylanmasi (mln.pass.km)	111435.0	115335.2	117412.7	107766.7	114681.5	123882.5	28224.4

O‘zbekistonda klaster nazariyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda klaster ishtirokchilari bir hudud doirasida to‘planuvchi klaster korxonalaridan tashkil etilishiga e’tibor qaratishgan. Mahalla institutining klaster mexanizmini joriy etishga quyidagilar asos bo‘lib hisoblanadi:

1. Mahallalarda oilaviy tadbirkorlik orqali daromad topish, ish bilan band bo‘lish istagida bo‘lgan aholiga amaliy yordam ko‘rsatish.

2. Mahalla aholisini oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish va yuritish bilan bog‘liq turli darajadagi muammolarning mavjudligi.

3. Mahalla aholisini oilaviy tadbirkorlikka faol da‘vat etuvchi va qo‘llab-quvvatlovchi boshqarish tuzilmasi va mexanizmi deyarli ishlamasligi.


5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi Qarori bilan ishbilarmonlik tajribasiga ega tadbirkorlarni mahallalarda yangi biznes faoliyati bilan shug‘ullanishni boshlagan oilalarga biriktirish – kichik klaster tashkil etish vazifasi belgilab qo‘ylganligi.

Oilaviy tadbirkorlik klasteri alohida hududda (tuman, shahar) joylashgan mahalla fuqarolar yig‘ini (MFY) yoki qishloq fuqarolar yig‘ini (QFY) negizida tashkil etiladi. Mahallada yashovchi oilalar (yoki qishloq fuqarolar yig‘inida yashovchilar), ularning guruhlari klasterda yakka tadbirkorlik, uy mehnati yoki oilaviy korxona faoliyatini yurituvchi shaxslar sifatida asosiy bo‘g‘in bo‘lib ishtirok etadi. Mahalla instituti tarkibiga kiruvchi tad-

<sup>9</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>



birkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha maslahat markazi (jamoatchilik tuzilmasi) klasterga kiruvchi barcha tomonlar ishlarni muvofiqlashtiruvchi va ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) kooperatsiyasini tashkil qilish hamda yakka tadbirkorlarga ko'mak berish va maslahat yordami ko'rsatish vazifalarini bajaradi. Bu tashkilotlar yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan klaster ichida kooperatsiya asosida yoki yakka holda mahsulotlar ishlab chiqaruvchi (xizmatlar ko'rsatuvchi) oilaviy korxonalarni tashkil etish, yakka tadbirkorlar va hunarmandlarni birlashtirish imkoniyatini yaratadi (1-rasm).



1-rasm. Mahalla oilaviy tadbirkorlik klasteri tarkibiy tuzilishi<sup>10</sup>.

- Mahallada oilaviy tadbirkorlik faoliyati klasterining asosiya vazifalari sifatida quydagilar belgilanishi mumkin:
- mahallada oilaviy tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va uni yuritish ishtiyoqida bo'lganlar ro'yxatini tuzish hamda istiqbolda mahallada ushbu faoliyat turlarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash;
- mahalla yoki tuman hududidan oilaviy korxonalarga yer ajratib berish va ulardan maqsadli foydalanish, yangi ish joylarini barpo etish jarayonlarini tahlil qilib berish;
- mahalla hududida oilaviy korxonalar ochish, yakka tadbirkorlik, kasanachilik, hunarmandchilik faoliyatini tashkil etish bo'yicha loyihalarni asoslash, samaradorligini baholash va ularga kredi mablag'lari olishda amaliy yordam berish;
- shahar, tuman hokimliklari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, "Har bir oila – tadbirkor" dasturini amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha hududi ishchi guruhlar bilan o'zaro aloqada bo'lish hamda yuzaga kelgan muammolarni hamkorlikda hal etish va boshqalar.

Klaster instituti faoliyatini boshqarish xarajatlarini unga kiruvchi oilaviy tadbirkorlik subyektlari ajratmalari (klaster ustavida ko'rsatilgan hajmda), xayriya pullari, xorijiy hamkorlar mablag'lari va boshqalar hisobidan qoplash mumkin.

Yuqorida fikrlar va taklifni amalga oshirish yuzasidan quydagilarni xulosa sifatida keltirish mumkin:

1. Oilaviy biznes korxonalarini o'zaro kooperatsiya aloqalarining muhim jihatlaridan biri – bu oilaviy tadbirkorlik shakkllari, turlari va boshqa belgilariga qarab tavsiflash (guruhlarga bo'lish) hisoblanadi. Bu kooperatsiyaga asoslangan o'zaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, kooperatsiyaning yangicha yo'llarini topishga keng imkoniyatlar beradi.

2. O'zaro aloqador oilaviy biznesning aniq bir faoliyat sohasiga tegishliligi bo'yicha oilaviy korxonalar ishlab chiqarish – xo'jalik yuritish tuzilmalari (turli korxonalar); boshqaruv va tartibga solish tuzilmalari (soliq organlari, mahalliy hokimiyatlar va shu kabilalar); moliya-kredit tuzilmalari (banklar, kredit tashkilotlari) bilan o'zaro aloqalarini ko'rib chiqish mumkin.

3. Oilaviy tadbirkorlik korxonalarining o'zaro aloqa shakkllarining miqyoslari va o'lchamlari bo'yicha kichik korxonalar yoki yirik korxonalar bilan yoki kattaligi o'zi bilan barobar kichik tuzilmalar bilan o'zaro aloqa qilishlari mumkin.

<sup>10</sup> Berkinov B., Abduraximova Y. Mahalla hududida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun kichik klasterni tashkil etish bosqichlari. "Qishloq xo'jaligida klaster tizimini rivojlantirish: tajribalar, natijalar va istiqbolli yo'nalishlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami, Buxoro, "Durdon" nashriyoti 2019, 58-64 b.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Oilaviy tadbirkorlikning o'zaro aloqalarining kelib chiqishi yaqinlik (uzviylik) darajasi bo'yicha kichik korxonalar, yirik ishlab chiqarish tuzilmasi negizida yoki boshqa kichik korxona tomonidan tashkil etilishi mumkin. Bu yerda turdosh obyektlar (masalan, sho'ba yoki ona korxonalar) haqida so'z bormoqda. Bunda korxonalarning o'zakli o'zaro aloqalari, odatda, niyoyat darajadagi yaqinligi (ayniqsa, yangi oilaviy korxonanining paydo bo'lishining dastlabki bosqichlarida) bilan tavsiflanadi.

Klaster ishtirokchilarning soni va ular orasidagi aloqalarning ko'pligi bo'yicha oilaviy korxona bitta ishlab chiqarish tuzilmasi bilan oddiy ikki tomonlama aloqa qilishi mumkin hamda turlicha kattalikdagi ko'plab obyektlar bilan aloqalarning murakkab tizimi doirasida bo'lishi mumkin.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон Стратегияси. – Тошкент: “O'zbekiston” нашриёти, 2021, 464 бет.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 29.12.2020, (president.uz).
3. Муродова Н.К. Кичик бизнес субъектларининг тадбиркорлик фаоллигини оширишнинг асосий йўналишлари. Иқт.фан.ном. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: 2008. – 21 б.
4. Обидов Р. “Кластер тизимда қишлоқ хўжалик маҳсулотларини сақлаш, қайта ишлаш ҳамда сотиш харажатлари ҳисобининг хусусиятлари”// “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. №3, июнь, 2018 йил.
5. <https://mininnovation.uz/ru> – O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining rasmiy sayti.
6. <https://mineconomy.uz/ru> – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi rasmiy sayti.
7. [https://en.wikipedia.org/wiki/Mel\\_Ziegler](https://en.wikipedia.org/wiki/Mel_Ziegler).
8. Markaziy Osiyodagi mintaqaviy integratsiya taqdiri nima bo'ladi? <https://davr24.uz>

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 8**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

